

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining
2024- yil 30 - *aprel* dagi
46 - sonli buyrug'iga
ilova

Mehnat resurslari hisobot balansini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom

“Mehnat resurslari hisobot balansini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom” (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keyingi o'rinlarda – GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, mehnat resurslari hisobot balansini hisoblash tartibini belgilaydi.

Uslubiy nizom Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan belgilangan me'yorlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan hamda O'zbekiston Respublikasida ish bilan ta'minlash va mehnat bozorining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Uslubiy nizom GSBPMning qayta ishlash va tahlil qilish bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

2. Ushbu Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

mehnat resurslari balansi – mehnat resurslari soni va tarkibi mavjudligini hamda ularni mehnat bilan band bo'lgan fuqarolar, ishsizlar va iqtisodiy faol bo'lmagan aholi bo'yicha taqsimlanishini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimi;

mehnat resurslari – mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi hamda mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi mehnat bilan band bo'lgan shaxslar;

mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi – ishlayotgan birinchi va ikkinchi guruh nogironlaridan hamda yoshiga ko‘ra imtiyozli shartlarda pensiya oluvchi shaxslardan tashqari, mehnatga layoqatli yoshdagi (16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan xotin-qizlar) shaxslar;

iqtisodiy faol aholi – mehnat bilan band bo‘lgan fuqarolar va ishsizlar;

mehnat bilan band bo‘lgan fuqarolar (bandlar) quyidagilar:

- mehnat shartnomasi bo‘yicha haq evaziga to‘liq yoki to‘liqsiz ish vaqti shartlari asosida ishlayotgan yoxud kasanachilik bilan shug‘ullanayotgan, shuningdek haq to‘lanadigan boshqa ishga, shu jumladan vaqtinchalik ishga ega bo‘lgan fuqarolar;

- kasalligi, ta’tilda bo‘lishi, kasbga tayyorlashda, qayta tayyorlashda yoki malaka oshirishda ekanligi, ishlab chiqarish to‘xtatib turilganligi munosabati bilan, shuningdek qonunchilikka muvofiq vaqtincha ish joyida bo‘lmagan xodimning ish o‘rni saqlanib qoladigan boshqa hollarda vaqtincha ish joyida bo‘lmagan fuqarolar;

- haq to‘lanadigan lavozimga saylangan yoki tayinlangan fuqarolar;

- O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati tizimida, bojxona organlarida va boshqa harbiy xizmat nazarda tutilgan idoralarda xizmatni o‘tayotgan fuqarolar;

- o‘zini ish bilan mustaqil ravishda ta‘minlayotgan fuqarolar, shu jumladan hunarmandlar, oilaviy korxonalarning ishtirokchilari, dehqon xo‘jaliklarining, ishlab chiqarish kooperativlari a‘zolari, fermer xo‘jaliklarining a‘zolari, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar sifatida ro‘yxatga olingan shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek, xizmatlar ko‘rsatish (ishlarni bajarish) bo‘yicha, shu jumladan fuqaroviy-huquqiy tisdagi shartnomalar bo‘yicha shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa shaxslar;

- O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolar;

- o‘z faoliyatini qonunchilikka muvofiq amalga oshirayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarda, shu jumladan diniy tashkilotlarda ishlayotgan fuqarolar;

ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo‘lmagan aholi (ishsizlar) – o‘n olti yoshdan to pensiya ta‘minoti huquqini olish yoshigacha

bo'lgan, haq to'lanadigan ishga yoki ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan mashg'ulotga ega bo'lmagan, ish qidirayotgan va ish taklif etilsa, unga kirishishga tayyor bo'lgan yoxud kasbga tayyorlashdan, qayta tayyorlashdan o'tishga yoki malakasini oshirishga tayyor bo'lgan, ishga joylashishda ko'mak olish uchun mahalliy mehnat organlariga murojaat qilgan va ushbu organlar tomonidan ish qidirayotgan shaxslar sifatida ro'yxatga olingan mehnatga layoqatli shaxslar (bundan ta'lim tashkilotlarida ta'lim olayotganlar mustasno);

rasmiy ravishda ro'yxatga olingan ishsizlar – o'n olti yoshdan to pensiya ta'minoti huquqini olish yoshigacha bo'lgan ish, ish haqi va daromadga ega bo'lmagan, mehnat organlarida ish qidiruvchi, ishlashga, kasb bo'yicha tayyorgarlikdan va qayta tayyorgarlikdan o'tishga, malaka oshirishga tayyor shaxs sifatida ro'yxatga olingan shaxslar;

iqtisodiy faol bo'lmagan aholi (iqtisodiy nafaol aholi) – mehnat bilan band deb hisoblanmaydigan shaxslar, shu jumladan:

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan o'quvchilar va talabalar;
- uy bekalari va bolalarni parvarish qilish bilan band bo'lgan ishlamayotgan ayollar;
- ixtiyoriy ravishda mehnat bilan band bo'lmagan shaxslar.

2-bob. Mehnat resurslari hisobot balansining tuzilishi va uning tarkibiy qismlarini hisoblash

3. Mehnat resurslari hisobot balansi – ikki qismdan, ya'ni resurslar hamda taqsimlanadigan qismlardan iborat.

Birinchi qism (resurslar) – mehnat resurslarining mavjudligi va ularning shakllanish manbalarini tavsiflab beradi.

Ikkinchi qism (taqsimlanadigan qism) – mehnat resurslarining quyidagi toifalarga taqsimlanishi:

- iqtisodiyotda band bo'lganlar;
- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan mehnatga layoqatli yoshdagi o'quvchilar va talabalar;
- iqtisodiyotda band bo'lmagan, mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi.

Mehnat resurslari hisobot balansining tuzilishi ushbu Uslubiy nizomning 1-ilovasida keltirilgan.

4. Mehnat resurslari hisobot balansining birinchi qismini tuzishda quyidagi ma'lumotlardan foydalaniladi:

- mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni to'g'risidagi joriy demografik ma'lumotlar;

- ish bilan band bo'lmagan nogironlar va imtiyozli shartlarda pensiya olayotgan shaxslar to'g'risida aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari ma'lumotlari.

Iqtisodiyotda band bo'lgan mehnatga layoqatli yoshdan katta shaxslar va o'smirlar soni to'g'risidagi ma'lumotlarni hisoblash 2-ilovaga muvofiq amalga oshiriladi.

5. Mehnat resurslari hisobot balansining ikkinchi bo'limini tuzishda quyidagi manbalardan foydalaniladi:

- korxona va tashkilotlarda ishlovchilar soni to'g'risidagi ma'lumotlar;

- bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar ma'lumotlari;

- soliq organlarining ma'lumotlari;

- mehnat organlarining bandlik masalalari bo'yicha har chorakda amalga oshiradigan o'rganishlari asosida iqtisodiyotning norasmiy sektorida band bo'lganlar soni to'g'risidagi ma'lumotlar;

- statistika hisobotlaridagi o'quv muassasalarida kunduzgi ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotganlar soni to'g'risidagi ma'lumotlar.

Ushbu ko'rsatkichlar 3-6-ilovalarga muvofiq hisoblanadi.

3-bob. Mehnat resurslari sonini hisoblab chiqish tartibi

6. **Mehnat resurslari soni** mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi soni va mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi ishlovchilar soni yig'indisi sifatida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$LR = WAPM + WTP$$

bunda,

LR – mehnat resurslari;

WAPM – mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi;

WTP – ishlayotgan o‘smirlar va pensionerlar.

Mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi soni, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi (16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan xotin-qizlar) sonidan mehnatga layoqatli yoshdagi ishlayotgan I va II guruh nogironlari, shuningdek yoshiga ko‘ra imtiyozli shartlarda pensiya olayotgan mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslar sonini chiqarib tashlash yo‘li bilan aniqlanadi (7-ilova):

$$WAPM = Mp(16 - 59) + Wp(16 - 54) - Ip - PP$$

bunda,

Mp (16 - 59) – 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar;

Wp (16 - 54) – 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan xotin-qizlar;

Ip – mehnatga layoqatli yoshdagi I va II guruh nogironlari;

PP – imtiyozli shartlarda pensiya olayotgan mehnatga layoqatli yoshdagi pensionerlar.

Axborot manbai:

Mp (16 - 59), Wp (16 - 54) – statistika organlarining ma’lumotlari;

Ip – budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hamda statistika organlarining ma’lumotlari;

PP – budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hamda statistika organlarining ma’lumotlari.

WTP – statistika organlari va budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi ma’lumotlari.

Ushbu ko‘rsatkichlar 9-ilovaga muvofiq hisoblanadi.

Mehnat resurslari sonini aniqlash manbai bo‘lib quyidagilar hisoblanadi – aholining yosh va jins tarkibi to‘g‘risidagi hamda yuridik shaxslarda band bo‘lgan o‘smirlar soni haqidagi statistika organlari ma’lumotlari; O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hamda statistika organlarining nogironlar, imtiyozli shartlarda pensiya olayotgan pensionerlar, mehnatga layoqatli yoshdan katta bo‘lgan ishlovchi pensionerlar to‘g‘risidagi ma’lumotlari.

7. Mehnat bilan band bo'lganlar sonini aniqlash.

Mehnat bilan bandlar soni quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqiladi:

$$E = EO_s + EI_s + LM$$

bunda,

EO_s – iqtisodiyotning rasmiy sektorida mehnat bilan bandlar;

EI_s – iqtisodiyotning norasmiy sektorida mehnat bilan bandlar;

LM – mehnat migrantlari – chet ellarda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet ellardagi O'zbekiston Respublikasi vakolatxonalarida ishlovchilardan tashqari.

Axborot manbai:

EO_s – statistika, soliq va mehnat organlari ma'lumotlari;

EI_s – Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar ma'lumotlari;

LM – ichki ishlar, bojxona organlarining hamda mehnat organlari tomonidan bandlik masalalari bo'yicha o'tkaziladigan o'rganishlarning ma'lumotlari.

8. Norasmiy sektorda band bo'lganlar sonini aniqlash.

Iqtisodiyotning norasmiy sektorida mehnat bilan band bo'lganlar jumlasiga soliq organlarida hisobga turmagan quyidagi shaxslar kiradi:

- davlat ijtimoiy sug'urta badali to'lamasdan haqiqatda dehqon xo'jaliklarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan dehqon xo'jaliklari a'zolari;

- uyda pulli xizmatlar ko'rsatish bo'yicha mehnat munosabatlarini rasmiylashtirmagan tadbirkorlarda (enagalar, uy xizmatchilari, uy oshpazlari, avtomobil haydovchilar, qorovullar va boshqalar) yollanib ishlash bilan mustaqil band bo'lgan shaxslar;

- tadbirkorlarga yollanib ishlovchi shaxslar, shu jumladan ularning oila a'zolari hamda davlat ijtimoiy sug'urta badali to'lovisiz va mehnat munosabatlari rasmiylashtirilmagan jismoniy shaxslar (quruvchilar, yuk tashuvchilar, farroshlar, ishchilar va boshqalar).

Iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlik mezonlariga quyidagilar kiradi:

- haftasiga kamida bir soat iqtisodiyotning norasmiy sektorida haq to'lanadigan har qanday faoliyat turi bilan bandlik;

- bandlik muntazamligi – iqtisodiyotning norasmiy sektoridagi bandlikdan tushgan har haftalik daromadning mavjudligi;

- shaxsiy yordamchi xo'jaligini yuritish uchun foydalaniladigan uy xo'jaligi boshqaruvidagi yer maydonining mavjudligi.

9. Mehnat faoliyatini chet elda amalga oshirayotgan shaxslar sonini aniqlash.

Mehnat resurslarini hisoblab chiqishda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet elga ketgan shaxslar soni hisobga olinadi. Ularning soni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet ellarga ketayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini hisobga olishni takomillashtirish to'g'risida" 2007- yil 15- maydagi 97-son qarori bilan tasdiqlangan sxema bo'yicha, quyidagilarni o'z ichiga oluvchi integratsiyalashgan axborotlar moduli asosida aniqlanadi:

- a) chet elga ketganlarning soni va maqsadi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- b) aholi hisobini yuritish bo'yicha ichki ishlar organlari ma'lumotlari;
- d) mehnat faoliyatini chet elda amalga oshirish uchun fuqarolarga Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan berilgan ruxsatnomalar ma'lumotlari;
- e) chet eldagi konsullik muassasalaridan olingan ma'lumotlar;
- f) uy xo'jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar.

10. Rasmiy sektorda band bo'lganlar sonini aniqlash.

Iqtisodiyotning rasmiy sektorida mehnat bilan band bo'lganlar soni statistika hisoboti, davlat ijtimoiy sug'urta badali to'lovchilarning davlat soliq hisobi hamda O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Iqtisodiyotning rasmiy sektorida mehnat bilan band bo'lganlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- davlat ijtimoiy sug'urta badali to'lovi bo'yicha korxona, muassasa va tashkilotlarning soliq hisobotlarida qayd etilgan shaxslar;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar, dehqon xo'jaligi a'zolari, qoramol o'stirish bilan band bo'lgan va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlarini sotish bilan band bo'lganlar, hamda davlat ijtimoiy

sug'urta badali to'lovini majburiy yoki ixtiyoriy ravishda amalga oshirayotgan shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda boshqa turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan band bo'lganlar.

11. Ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo'lmagan aholi sonini aniqlash.

Ishga joylashtirishga muhtoj, mehnat bilan band bo'lmagan shaxslar (ishsizlar) soni mehnat resurslari sonidan mehnat bilan bandlar sonini va iqtisodiy faol bo'lmaganlar sonini chiqarib tashlagan holda quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$U = LR - E - EIP$$

bunda,

U – ishga joylashtirishga muhtoj, mehnat bilan band bo'lmagan shaxslar (ishsizlar);

LR – mehnat resurslari;

E – mehnat bilan band bo'lgan fuqarolar;

EIP – iqtisodiy faol bo'lmagan aholi.

12. Iqtisodiy faol bo'lmagan aholi sonini aniqlash.

Iqtisodiy faol bo'lmagan aholi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$EIP = PS + IW + VUP$$

bunda,

EIP – iqtisodiy faol bo'lmagan aholi;

PS – ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan o'quvchilar va talabalar;

IW – tug'ruq ta'tilidagi yoki 3 yoshgacha bolalarni parvarish qilayotgan ishlamaydigan ayollar;

VUP – uy bekalari va ixtiyoriy ravishda ish bilan band bo'lmagan shaxslar.

Axborot manbalari:

PS – statistika organlarining ma'lumotlari;

IW – statistika organlarining hisoblangan ma'lumotlari;

VUP – mehnat organlari tomonidan mehnat bilan bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar ma'lumotlari.

13. Mustaqil ravishda ish qidirayotgan shaxslar sonini aniqlash.

Mustaqil ravishda ish qidirayotganlar soni ishga joylashtirishga ehtiyoj sezadigan aholining hisoblangan sonidan hisobot davri oxiridagi holati bo'yicha tuman va shaharlar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlarida rasman ishsizlar sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan shaxslar sonini chiqarib tashlash yo'li bilan quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$US = U - UO$$

bunda,

US – ish bilan band bo'lmaganlar, mustaqil ravishda ish qidirayotganlar;

U – ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo'lmagan aholi (ishsizlar);

UO – ishga joylashtirishga muhtoj bo'lganlarni aniqlash paytida rasman ro'yxatdan o'tkazilgan ishsizlar.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish tuman (shahar) bo'limlari ma'lumotlari rasman ro'yxatdan o'tkazilgan ishsizlar bo'yicha axborot olish manbai hisoblanadi.

4-bob. Mehnat resurslari hisobot balansini hisoblash uchun ma'lumotlar bazasi

14. Mehnat resurslari hisobot balansini hisoblab chiqishda, ma'lumotlar bazasi sifatida Statistika agentligining statistik ma'lumotlari, Soliq qo'mitasining idoraviy ma'lumotlari hamda O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining idoraviy va bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar natijalaridan foydalaniladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

15. Mehnat resurslari hisobot balansini, Statistika agentligi tomonidan har yil yakuni bo'yicha, Statistika dasturida belgilangan muddatlarda, respublika, hududlar va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqiladi.

Mehnati resurslari hisobot balansini, yillik statistika hisobotlarining aniqlashtirilgan ma'lumotlarini hisobga olgan holda, hisob-kitob natijalariga asoslanadi.

16. Mazkur Uslubiy nizomni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari “Statistik ma’lumotlarni taqdim etishning universal modeli” (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo’yicha namunaviy uslubiy qo‘llanma”ga muvofiq amalga oshirilgan.

Mazkur Uslubiy nizom, respublika va hududiy darajada statistika organlari tomonidan mehnat resurslari hisobot balansini ishlab chiqishda foydalanish uchun mo‘ljallangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni./ <https://lex.uz/docs/5055690>

2. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi./ <https://lex.uz/docs/6257288>

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 22- dekabrda “Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo‘jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo’yicha o‘rganishlar o‘tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 1011-son qarori. / <https://lex.uz/docs/3469433>

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007- yil 15- maydagi “Mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet ellarga ketayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini hisobga olishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 97-son Qarori. / <https://lex.uz/ru/docs/1202812>

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 22- fevraldagi “Chet elda ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda ish vaqtini hisobga olib bo‘lmaydigan shaxslarning ayrim toifalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘lash tartibini, shuningdek, ularning pensiyani hisoblash uchun olinadigan ish stajini va ish haqi miqdorini hisobga olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 46-son qarori./ <https://lex.uz/ru/docs/2904908>

6. “Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy konvensiyalari va tavsiyalari”/ Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi/ Toshkent, 2008.

7. Milliy hisoblar tizimi (2008). Yevropa Hamjamiyati komissiyasi, Xalqaro valyuta fondi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Jahon banki. Nyu-York, 2009.

Mehnat resurslari
hisobot balansini hisoblash
bo'yicha uslubiy nizomga
1-ilova

Mehnat resurslari balansi hisobi
20____ -yil uchun o'rtacha

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	Jami	ming kishi shu jumladan:	
			shahar	qishloq
A	B	1	2	3
01	Doimiy aholi soni			
	shu jumladan:			
02	mehnatga layoqatli yoshdagi aholi			
03	Mehnat resurslari soni (04 satr + 05 satr)			
	shu jumladan:			
04	mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi			
05	ishlovchi pensionerlar va o'smirlar			
06	Iqtisodiy faol aholi (07 satr + 30 satr)			
07	Iqtisodiyot tarmoqlarida bandlar soni, jami (08 - 28 satrlar yig'indisi)			
	shu jumladan:			
08	qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi			
09	tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash			
10	ishlab chiqaradigan sanoat			
11	elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash			
12	suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish			
13	qurilish			
14	ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash			
15	tashish va saqlash			
16	yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar			
17	axborot va aloqa			
18	moliyaviy va sug'urta faoliyati			
19	ko'chmas mulk bilan operatsiyalar			
20	professional, ilmiy va texnik faoliyat			
21	boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish			
22	davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot			
23	ta'lim			
24	sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish			
25	san'at, ko'ngil ochish va dam olish			
26	boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish			
27	uy xizmatchilari yollovchi va o'z iste'moli uchun tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi uy xo'jaliklari faoliyati			
28	eksterritorial tashkilotlar faoliyati			
29	Dehqon xo'jaliklarida bandlar (08-satrdan)			

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	Jami	shu jumladan:	
			shahar	qishloq
30	Ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo'lmagan aholi (ishsizlar)			
31	shundan: ishsiz sifatida rasman ro'yxatdan o'tganlar			
32	Iqtisodiy faol bo'lmagan aholi (33 + 34 + 35 satrlar)			
	shu jumladan:			
33	ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan o'quvchilar va talabalar			
34	tug'ruq ta'tilidagi yoki 3 yoshgacha bolalarini parvarish qilayotgan ishlamaydigan ayollar			
35	ixtiyoriy ravishda mehnat bilan band bo'lmagan shaxslar va uy bekalari			

Izoh: mehnat resurslari balansini hisoblashda, ma'lumotlarni shahar va qishloq joylariga ajratish korxona (tashkilot) va idoralarning hisobotlari asosida amalga oshiriladi.

**Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan
mehnat yoshidan katta shaxslar va o'smirlar sonini hisoblash**
20___ - yil uchun o'rtacha

ming kishi

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	Jami	shu jumladan	
			shahar	qishloq
A	B	1	2	3
01	Mehnat yoshidan katta shaxslar va o'smirlar, jami (02 satr + 03 satr + 04 satr)			
	shundan:			
02	mehnat yoshidan katta yoshdagi ishlayotgan shaxslar (1-mehnat, 1-kb, 1-fx, 1-nnt, 1-kom (kvartira) shakli (yillik))*			
03	ishlayotgan o'smirlar (1-mehnat, 1-kb, 1-fx, 1-nnt, 1-kom (kvartira) shakli (yillik))			
04	Yakka tartibdagi faoliyatda band (takroriy bandliksiz) mehnat yoshidan katta yoshdagi shaxslar			

Mehnat yoshidan katta shaxslar va o'smirlar soniga 60 yosh va undan katta erkaklar, 55 yosh va undan katta ayollar va barcha jinsdagi 16 yoshdan kichik yoshdagi o'smirlar kiritilgan.

*) 20___ y. 1 yanvar va 20___ y. 1- yanvar holatiga bo'lgan ma'lumotlar yig'indisining ikkiga bo'linmasi.

Mehnat resurslari
hisobot balansini hisoblash
bo'yicha uslubiy nizomga
3-ilova

**Mehnatga layoqatli yoshdagi, ishlab chiqarishdan ajralgan
holda ta'lim olayotganlar sonini hisoblash
20__ yil uchun o'rtacha**

(ming kishi)

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	Jami	shu jumladan:	
			shahar	qishloq
A	B	1	2	3
01	Umumta'lim tashkilotlari o'quvchilari soni (4- ilovaning 03-satri)			
02	Akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikum o'quvchilari soni (5-ilovaning 03-satri)			
03	Oliy ta'lim tashkilotlari talabalari soni (6-ilovaning 03-satri)			
04	20__ yil uchun o'rtacha (ushbu jadvalning 01- 03 satrlari yig'indisi)			

Mehnat resurslari
hisobot balansini hisoblash
bo'yicha uslubiy nizomga
4-ilova

**Mehnatga layoqatli yoshdagi umumta'lim tashkilotlari
o'quvchilari sonini hisoblash*
20___ yil uchun o'rtacha**

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	Jami	ming kishi	
			shu jumladan	
A	B	1	shahar	qishloq
2	3			
01	20___/20___ o'quv yili boshiga (o'tgan yil uchun ushbu jadvalning 02-satri)			
02	20___/20___ o'quv yili boshiga (20___/20___ o'quv yili boshiga 1-umumta'lim shakli (yillik))			
03	20___ yil uchun o'rtacha soni (ushbu jadval bo'yicha (01 satr + 02 satr) / 2)			

*) O'quvchilarning yoshi bo'yicha tarkibi hisobot davridan keyingi yilning 1 yanvar holatiga ko'rsatiladi.

Masalan: Hisobot 2023/2024- o'quv yili uchun tuzilgan. Ushbu holatda o'quvchilarning yoshi 2024— yil 1- yanvar holatiga ko'rsatiladi.

Mehnat resurslari
hisobot balansini hisoblash
bo'yicha uslubiy nizomga
5-ilova

**Akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikum
o'quvchilari sonini hisoblash
20___ yil uchun o'rtacha**

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	Jami	ming kishi	
			shu jumladan:	
A	B	1	shahar	qishloq
			2	3
01	20___/20___ o'quv yili boshiga (o'tgan yil uchun ushbu jadvalning 02 satri)			
02	20___/20___ o'quv yili boshiga (20___/20___ o'quv yili boshiga 1 -o'rta ta'lim shakli (yillik))			
03	20___ yil uchun o'rtacha soni (ushbu jadval bo'yicha (01 satr + 02 satr) / 2)			

Mehnat resurslari
hisobot balansini hisoblash
bo'yicha uslubiy nizomga
6-ilova

Oliy ta'lim tashkilotlari talabalari sonini hisoblash
20___ yil uchun o'rtacha

ming kishi

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	Jami	shu jumladan:	
			shahar	qishloq
A	B	1	2	3
01	20___/20___ o'quv yili boshiga (o'tgan yil uchun ushbu jadvalning 02-satri)			
02	20___/20___ o'quv yili boshiga (20___/20___ o'quv yili boshiga 1 - oliy ta'lim shakli (yillik)), kunduzgi ta'lim			
03	20___ yil uchun o'rtacha soni (ushbu jadval bo'yicha (01 satr + 02 satr) / 2)			

Mehnat resurslari
hisobot balansini hisoblash
bo'yicha uslubiy nizomga
7-ilova

**Mehnatga layoqatli yoshdagi
mehnatga layoqatli aholi sonini hisoblash
20__ yil uchun o'rtacha**

ming kishi

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	Jami	shu jumladan:	
			shahar	qishloq
A	B	1	2	3
01	Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni*			
02	Mehnatga layoqatli yoshdagi ishlamaydigan 1- va 2- guruh nogironlari – jami (03 satr + 04 satr)			
	shu jumladan:			
03	mehnat nogironlari (8-ilovaning 07-satri)			
04	harbiy xizmatchi nogironlar (8-ilovaning 15-satri)			
05	Mehnatga layoqatli yoshdagi yoshiga ko'ra imtiyozli shartlarda pensiya olayotgan ishlamayotgan pensionerlar soni (9-ilovaning 07- satri)			
06	Mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi soni (ushbu jadval bo'yicha 01 satr – 02 satr – 05 satr + 07 satr + 08 satr)			
07	Ishlayotganlar soni bo'yicha mayatnikli migratsiya			
08	O'quvchilar soni bo'yicha mayatnikli migratsiya			

*) 20__y. 1 yanvar va 20__y. 1- yanvar holatiga bo'lgan ma'lumotlar yig'indisining
ikkiga bo'linmasi.